

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
2023-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining
samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash
yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

H I S O B O T

“NKMK” AJda (*keyingi o‘rinlarda - Kombinat*) korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash sohalarida 2023-yil davomida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan:

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida:

Kombinatning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga (*keyingi o‘rinlarda - Xizmat*) **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 10 nafari xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda 5 ta vakant lavozimlarga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

Kombinat Bosh direktori tomonidan 2023-yil 11-yanvarda Komplayens xizmatining **34 banddan** iborat 2023-yil ish rejasi tasdiqlangan. Ish rejaning barcha bandlari ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Jumladan, Janubiy, Shimoliy, Markaziy va “Qizilqum” kon boshqarmalarida hamda “NMZ” IChBda Kombinatning 2022-yil 11-martdagi 192-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ishga qabul qilish Tartibiga asosan xodimlarni ishga ochiq tanlov asosida qabul qilish va boshqa lavozimga o‘tkazilishi qonuniyligi o‘rganildi. O‘rganish natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi.

Shuningdek, 2023-yil 7-martda Kombinat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **11 ta banddan** iborat chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va ijrosi to‘liq ta’minlandi.

O‘tgan davr mobaynida Kombinat ishchi-xodimlari bilan **194 marotaba** (*jumladan, 105 ta seminar, 8 ta uchrashuv, 76 ta so‘rovnoma, shuningdek 3 marotaba mahalliy teleko‘rsatuv va 1 marotaba radioda hamda 1 marotaba gazetada*) huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **7126 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

Joriy yil davomida Xizmat xodimlari tomonidan **35 marotaba** “onlayn va an’anaviy” malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi. Jumladan, “ISO37001:2016 xalqaro standarti bo‘yicha Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimi auditi” yo‘nalishida **2 ta**, “Davlat xaridlari sohasida firibgarlik va korrupsiyani oldini olish” yo‘nalishida **8 ta**, AQSh Pensilvaniya universitetining “Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishida **1 ta**, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning “Xususiy sektorda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish” yo‘nalishida **3 ta**, “Xalqaro sanksiyalarni

tushunish, ikkilamchi sanksiyalar, xalqaro arbitraj shuningdek amaliyotdagi muammolar” yo‘nalishida **1 ta** va boshqa yo‘nalishlarda **20 ta** sertifikatlar olindi.

Shu bilan birga, Kombinat Bosh direktori - Boshqaruv raisining ishchi-xodimlarga yo‘llagan **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati** xodimlar e‘tiboriga yetkazildi.

ISO 37001:2016 xalqaro standarti muvofiqlik sertifikati talabi bo‘yicha joriy yil davomida **4 ta** ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi (*jami 17 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan*).

(*Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Komplayens xizmatining Nizomi, Xodimlarni ishga qabul qilish Tartibi, Odob-axloq kodeksi, Xodimlarni odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma, Korrupsiyaga oid harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash Reglamenti, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish Reglamenti, Nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma, Xaridlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom, Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-axloq qoidalarini hamda boshqa qonunbuzilish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari va o‘rganishlar o‘tkazish bo‘yicha Reglament, Homiylik va xayriya yordamlari to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi, Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida Nizom, Monopoliyaga qarshi Komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida Nizom*).

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatga olingan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha*) Uslubiyot hamda Kombinatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga ko‘ra, **“Qizilqum” kon boshqarmasida** joriy yilning fevral-mart oylarida korrupsiyaviy **xavf-xatarlarni aniqlash va baholash** o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **12 ta** “yuqori” va **30 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 20-aprelda **36 banddan** iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 23 ta bandi ijrosi ta‘minlandi va qolgan 13 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, **“NMZ” ishlab chiqarish birlashmasida** joriy yilning may-iyun oylarida korrupsiyaviy **xavf-xatarlarni aniqlash va baholash** o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **325 ta** funksiyalar baholanib, shundan **17 ta** “yuqori” va **51 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 10-avgustda **57 ta** banddan iborat chora-tadbirlar

Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 47 ta bandi ijrosi ta'minlandi va qolgan 10 ta bandlari ijrosi nazoratga olindi.

Joriy yil mobaynida Komplayens xizmatiga jami **477 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo'lib, ijro muddati kelgan **332 tasining** ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi.

Komplayens xizmati tomonidan jami **2392 ta** (1882 ta buyruq va 510 ta farmoyish) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **157 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Shu bilan birga, Kombinat markaziy apparatiga xodimlarni ishga qabul qilish komissiyasining **55 ta** hamda homiylik va xayriya yordamlarini ko'rsatish komissiyasining **92 ta** yig'ilishlarida komissiya a'zosi sifatida ishtirok etildi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan **21 ta** takliflar ishlab chiqilib, tegishli tartibda amaliyotga joriy etish uchun taqdim etildi.

Bundan tashqari, joriy yil davomida Kombinatga tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **1893 nafar** nomzodlar ustidan "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomalar talablari asosida tekshiruvlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **2632 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda "NKMK" AJ tomonidan tuzilgan **9945 ta** xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta'minlandi.

O'tgan davr mobaynida jami **35 marotaba** o'rganish hamda xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, shundan 13 tasi tegishli tartibda chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. **46 nafar** ishchi-xodimlar (16 nafar rahbarlar) intizomiy javobgarlikka tortildi (*shundan 2 nafar rahbar lavozimidan chetlatildi*).

Shuningdek, **24 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 12 tasi bo'yicha xizmat tekshiruvi, 6 tasi bo'yicha o'rganishlar o'tkazildi va murojaatlardan 6 tasi tegishliligiga ko'ra yuborildi hamda barcha murojaat mualliflariga javob xatlari jo'natildi.

Shu bilan birga, Kombinatda o'tkazilgan monitoringlar natijasida **5 ta** holatda **manfaatlar to'qnashuvi** aniqlanib, bartaraf etilishi ta'minlandi.

Joriy yil davomida xaridlar sohasida "Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha" Komissiyasi (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **8 ta** tenderlar va **75 ta** tanlash hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi.

Xizmat tomonidan joriy yil davomida Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **85 ta** kontragentlarning faoliyati tekshirildi.

Tekshirish natijasida **22 ta** kontragentlarning hujjatlari tegishli talablarga javob bermasligi aniqlanib, tegishli tuzatishlar kiritilishi ta'minlandi.

“NKMK” AJning 2023-yil 20-iyundagi 337-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo‘yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **13 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o‘tkazildi. Shundan, **11 ta** kontragent hujjatlari bo‘yicha **ijobiy**, **2 ta** kontragent hujjatlari bo‘yicha **salbiy** xulosa berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qaroriga ko‘ra, 2023-yil yakuni bo‘yicha **29 turdagi** ma‘lumot va hisobotlar “**E-Anticor.uz**” elektron platformasiga kiritildi.

Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-son farmoni ijrosi yuzasidan 2022-yil 6-dekabrda “NKMK” AJda ochiqlik darajasini yanada oshirish bo‘yicha **68 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlangan. Ushbu Dastur ijrosi belgilangan muddatlarda bajarilishi ta'minlandi.

Kombinatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portal (*kombinat xodimlari uchun joriy etilgan*)da “**Korrupsiyaga qarshi kurashish**” va “**Ochiq ma‘lumotlar**” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e‘lon qilinishi belgilangan ma‘lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas‘ul xodimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma‘lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Kombinatning 2023-yil 1-noyabrdagi tegishli farmoyishiga asosan Kombinatda **2023-yil noyabr-dekabr** oylarida “**Korrupsiyaga qarshi kurashish oyli**gi” va “**Ochiq eshiklar kuni**” tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish belgilandi.

Shunga ko‘ra, kombinat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxonalar ishchi-xodimlari ishtirokida 2023-yil 22-noyabr kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “**9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni**”ga bag‘ishlangan “**Ochiq eshiklar kuni**” tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda “NKMK” AJ Komplayens xizmati mas‘ul xodimlari, Navoiy ixtisoslashtirilgan prokurori Sh. G‘afforov, Adliya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i

D. Kattaeva va Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari M. Elmurodovlarning mavzuga oid ma'ruzalari tinglandi.

O'tkazilgan "Ochiq-eshiklar kuni" tadbiri "Navoiy" televideniyesi, "O'ZA" Milliy axborot agentligining va Kombinatning rasmiy veb-saytlarida hamda telegramm kanallarida yoritildi.

Tartibot bo'limi bilan hamkorlikda o'g'rilik, baxtsiz hodisalar, jarohatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlarni oldini olish yo'nalishida:

Kombinatda amalga oshirilishi belgilangan investitsion loyihalarga muvofiq 2, 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlarida zamonaviy dasturiy-texnika majmuasi negizida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirgan boshqarish tizimi joriy etildi. Mazkur tizim doirasida 100 km optik tolali aloqa kabeli va 10 000 dan ortiq o'lchov vositalari (datchiklar) o'rnatildi.

Bu tizim gidrometallurgiya majmualarining ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, shuningdek ishlab chiqarishdagi yo'qotish va zararlarni keskin kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Kombinatda ma'lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish maqsadida barcha (*zavod, sex, kon va boshqa*) obyektlarda 3500 dan ortiq video-kameralar o'rnatilib, texnologik jarayonlarni nazorat qiladigan videokuzatuv tizimi joriy etildi.

Bu tizim o'z navbatida operatorlarning ish yukini va ishlab chiqarishdagi nuqson (*brak*)larni kamaytirishga, ishlab chiqarishni nazorat qilishning unumdorligini oshirishga, xodimlarning harakatlarini nazorat qilish va ishlab chiqarishdagi **o'g'rilik, baxtsiz hodisalar, jarohatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlarni** oldini olish va o'z vaqtida bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Kombinatning o'ta muhim va toifalangan obyektlaridagi qo'riqlash bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil etish, Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida joylashgan tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z manziliga xavfsiz yetkazilishini ta'minlash maqsadida 2023-yil avgustda Tartibot bo'limi tarkibida Qo'riqlanadigan obyektlar videokuzatuvi xizmati tashkil etildi.

Xizmat kuzatuvi uchun tarkibiy bo'linmalarning jami **24 ta** videoregistratorlaridan **758 ta** kamerani real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi.

Komplayens xizmati boshlig'i

R.F. Avezov